Abdug‘opirova Feruza Akramjon qizi
University of Business and Science
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), v.b.b.dotsent
Email: shahinabonu16@gmail.com
G‘aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi
University of Business and Science o‘qituvchisi
Email: nafisanosirjonqizi@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SENZITIV DAVRLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10683430

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning senzitiv davrlari haqida bayon etiladi. Shuningdek, ushbu davrda asosiy faoliyatlari ketma-ketligi, xulq-atvorni namoyon bo‘lish shakllari va boshqalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: senzitiv davr, maktabgacha yosh, xulq-atvor, faoliyat turlari, muloqot

Mamlakatimizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun juda katta imkoniyatlar, sharoitlar yaratilgan. Yurtimiz o‘g‘il qizlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilayotgan bunday ezgu sa’y-harakatlar doirasida o‘quvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida bilim olishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Hozir biz yashayotgan zamonaviy davrda ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish,uni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, fan sohasidagi yangiliklarni, texnologiya va zamonaviy metodlarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biridir. Ayniqsa yosh avlodga XXI asr talablariga mos ravishda ta‘lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta‘lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta‘lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, iqtidorli, barkamol avlodni shakllantirish, ta‘lim tizimi uchun malakali kadrlarni tayyorlash eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim tizimi ham isloh qilindi

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishni psixologik bilimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli o‘qish faoliyatida o‘quvchilarni harakter hislatlarini shakllantirish muhimligini alohida ta’kidlash lozim. Barkamol avlodni tarbiyalashda dasturlashtirilgan birinchi qo‘yiladigan qadam bu maktabgacha ta’lim tashkiloti. Bunday tashkilotlarda ta’lim berish jarayonlari ziyolilar tomonidan o‘rganib chiqilib davlat dasturi asosida tizimlashtirilgan holatda olib boriladi. Shuningdek, mavjud bo‘lgan va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganib chiqish va bartaraf etish bugungi kunning asosiy ish faoliyati desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ana shunday muammolardan biri maktabgacha ya’ni 6-7 yoshdagi bolalarda senzitivlikdir.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixalogiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr (kichik bog‘cha yoshi), (4-5 yosh) o‘rta maktabgacha davr , (o‘rta bog‘cha yoshi), (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog‘cha yoshi) ga ajratish

mumkin. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirib, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va tanqidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o‘z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatlardir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

predmetlarni o‘rganish;

individual predmetli o‘yinlar, jamoa sujetli -rolli o‘yinlar;

individual va guruhiy ijod;

musobaqa o‘yinlari;

muloqot o‘yinlari;

uy mehnati[1].

Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi ham kengayib boradi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning kattalar bilan muloqoti ularda nutqning rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi.

M.I.Lisinia maktabgacha yoshdagi bolani kattalar bilan muloqotining vaziyatdan tashqari xarakterini ta’kidlab, uning 2 shaklini ko‘rsatgan [2] .

Bola 3-4 yoshga to‘lganida hamkorlik o‘rniga muloqotning bilish shakli shakllanadi. Vaziyatdan tashqari bilish muloqoti shakllanadi. Muloqotning bu shaklida yetakchi motivi - bilishdir. Bunda kattalar bilan hamkorlik qilib tevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan “nazariy hamkorlik” jarayoni amalga oshadi. Bola hayvonlar, narsalar, planetalar, nimadan yasalganligi haqida juda ko‘p “Nima uchun?” degan savollar beradi. Kattalar bola tomonidan bilim manbayi sifatida idrok qilinadi, savollariga va o‘ziga jiddiy munosabatda bo‘lishni, hurmatni talab qiladi.Bu ehtiyojning muhimligi shundaki, bu yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan tez xafa bo‘luvchanlikda namoyon bo‘ladi [1]. Shu va shunga o‘xshash holatlar 6-7 yosh doirasida ko‘proq kuzatiladi va bu fan doirasida “ senzitivlik” deb yuritiladi.

Senzitivlik (lotincha sensus - hissiyot) - turli ta’sirlarga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo‘zg‘alishi.

Atoqli rus psixologi L.S.Vigotskiy bu yoshdagi inqirozni 7 yosh inqirozi deb atagan va bola xulq-atvori hamda harakteridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib o‘tgan [3: 376-385].

Bolaning xulq-atvorida bolalarcha bevositalik yo‘qoladi. Inqirozning belgilari sifatida jarohatlaydigan kechinmalardan himoya qilish funksiyasini bajaradigan qiyshanglash, qiliq qilish, masxarabozlik qilishda namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yosh davrida bola o‘zini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, o‘z hissiyotlari va kechinmalarini anglashgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Bu hissiyotlar aniq faoliyat turi bilan bog‘liq. Bola o‘z hiss-

iyotlari va kechinmalarini umumlashtirish asosida o‘z-o‘ziga munosabatda bo‘la boshlaydi.

Shu bilan birga uyda quyidagi xulq-atvorni namoyon etadi:

bolaga gapirilgandan so‘ng javob reaksiyasi orasida tanaffusning paydo bo‘lishi (“o‘zini eshitmaganday tutishi”, “yuz marta qaytarish kerak”);

ota-ona tomonidan buyurilgan ishni bajarishda vaqtni cho‘zish;

quloq solmaslik-odatiy ishlarni va burchlarini bajaraishdan bosh tortish sifatida;

“kichkina boladay” ko‘rinmaslik uchun o‘zining tashqi ko‘rinishi va kiyimiga qattiq e’tibor berish.

Shuningdek, qaysarlik, talabchanlik, injiqlik, berilgan va’dani qayta-qayta eslatish, tanqidni ko‘tara olmaslik, maqtovni kutish kabi xulq-atvor shakllari ham kuzatiladi.

Xulq-atvor bunday xususiyatlarining psixologik mazmuni shundaki, bolaning o‘zi tomonidan mustaqil tashkil etilgan harakatlarning ichki qadrliligini oshirish, qoidalarni anglashdan iborat. Eng muhim tuzilmalardan biri - muhim ijtimoiy mavqeni egallash qobiliyati, ijtimoiy harakat qilish ehtiyojidir.

M.Sh.Rasulova o‘z ilmiy izlanishlarida katta maktabgacha va kichik maktab yosh davrida burch hissini shakllantirish masalasiga asosiy e’tiborni qaratgan bo‘lib, maktabgacha yosh davridayoq bolaning bilish jarayonlari va hissiy-irodaviy sohasiga maqsadli yo‘naltirilgan ta’sir orqali burch hissini rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi [4].

Z.T.Nishonovaning fikricha, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning burch haqidagi bilimlari hajm va mazmun jihatidan kichik maktab yoshidagilardan farq qiladi. Katta maktabgacha yosh davrida bu tasavvurlar o‘yin faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kattalar, tengdoshlari va kichik yoshdagilar bilan bo‘lgan munosabatlar doirasida chegaralansa, kichik maktab yosh davridagi o‘quvchilarda esa burch haqida ko‘p qirrali (o‘qish, mehnat, jamoaviy) faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan birmuncha to‘liqroq bilim mavjudligini ko‘rish mumkin.

Diffisil bolalar emotsional sohasi xususiyatlari esa L.V.Nazirova ishlarida ko‘rinadi. Uning fikricha, kattalar tomonidan qo‘llaniladigan nohaq jazolash, hujum, ayblov diffisil bolada salbiy affektiv kechinmalarni vujudga keltiradi [5]. Bu holatning doimiy takrorlanishi aqliy faoliyat jarayonidagi buzilishni determinatsiyalovchi emotsional zo‘riqish va xavotirlilikni keltirib chiqaradi. Yuqori xavotirlanish nerv tizimi ishini susaytirib, fikrlash faoliyati samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Undan tashqari L.V.Nazirova diffisil bolalarda xavotirlanishning yuqori ko‘rsatkichlari, salbiy hissiy kechinmalar, himoyasizlik, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, adovat hislari mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi [1].

Xulosa: Inqirozning ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

kattalar bilan muloqotga qiziqish, unga yangi mavzularni kiritish (siyosat, boshqa mamlakatlar va planetalardagi hayot, maktab haqida, axloqiy tamoyillar haqida);

shaxsiy qaroriga ko‘ra o‘ziga ajratilgan majburiyatlarni bajarishda va sevimli mashg‘ulot (xobbi) bilan shug‘ullanishda mustaqillik.

7 yosh inqirozini yengishda bolaga ko‘rsatiladigan yordamning asosiy shakllari - bu talablari sababini asoslashga urinish; mustaqil faoliyatning yangi shakllarini amalga oshirishga harakat qilish, berilgan topshiriqni bajarish zarurligini eslatish, bu topshiriqni bolaning bajara olishiga ishonch bildirish [1].

Muammoni bartaraf etishda bola bilan muloqot qiluvchi shaxslarning bola bilan individual yondashishi, ko‘proq muloqot qilishi, “Do‘stlik” a’loqalarini o‘rnatishi, uning talab va istaklarini o‘rganib chiqishi, bergan savollariga bolaning tushunish darajasi doirasida tushuntirib berishi, hamda bolaning “ichki Men”ini to‘g‘ri rivojlantirishi uchun unga mustaqil harakat qilishi va qaror qabul qilishiga ko‘maklashishi lozim.Inqirozni bartaraf etishning samarali usuli bu bolaning ishonchiga erishishdir. Ya’nikim bolada senzitiv holat kuzatilganda uni bu

holat (qiyshanglash, masxara qilish, e'tiborsiz va loqaydlik) to'g'ri emasligiga ishontira olishi kerak. Shuningdek, bajarishi lozim bo'lgan ishlarni yodga solib turishi, bajargan ishini o'zi uchun qanday foydali tomonlari borligini ta'kidlab o'tishi, bolaning ijodiy faoliyatiga rag'batlantirishi, ruhan qo'llashi lozim. o'tishi, bolaning ijodiy faoliyatiga rag'batlantirishi, ruhan qo'llashi lozim. Misol uchun: sen uddalay olasan,senga ishonaman, bu qo'lingdan keladi, biz sen bilanmiz va hokozo...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" n. 2018.

2. Лисина М.И. Проблема онмогенеза общения. 2005. С. 89-100.

3. Виготский Л.С.Возрастной (кой) психологии // Собрание сочинений в 6.Т. 1984. Т.4.С.376-385.

4. Расулева М.Ш.Формирование чувства общественного долга у старших дошкольников и младших школьников: Автореф.дис. ... канд. Психол. наук. - Тбилиси: Тбилиский государственный университет, 1986-19 с.

5. Назырова Л.В.Особенности емоциональной сферы диффисильных детей 7-9 лет: Автореф. дис..., канд. психол. наук. -Т.: НУУз, 2001.-20.

6. Abdug'opirova F. KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – Yo'q. 7. – 697-704-betlar.

7. Abdugopirova F. A. DESCRIPTION AND ANALYSIS OF PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL COGNITIVE ACTIVITY AND RELATED CONCEPTS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2022. – T. 3. – №. 01. – C. 59-66.

8. Nafisa GA BOSHLANGANCHI SINF DARSLARIDA MUNOSABAT QONUNLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TASOSİPLARI // Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali. – 2023. – T. 3. – Yo'q. 5. – 65-74-betlar.

9. G'aybullayeva N. va boshqalar. MAKTAB O'QUVCHILAR TA'LIMDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI //Fan va innovatsiya. – 2022. – T. 1. – Yo'q. 6. – 565-568-betlar.